

NOMODDIY AKTIVLARNI BAHOLASH

Nozimov E. A

SamSI Investitsiya va Innovatsiyalar Kafedrasida katta o'qituvchisi

Xujaqulova Sevinch

SamSI Buxgalteriya hisobi va Menejment fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada korxonada raqobatdoshligini shakllantiruvchi muhim omillardan biri — nomoddiy aktivlarning iqtisodiy mohiyati hamda ularni baholashning asosiy tamoyillari keng yoritiladi. Tadqiqot jarayonida brend, patent, dasturiy ta'minot kabi nomoddiy boyliklarni baholashda qo'llaniladigan xarajatlar yondashuvi, bozor yondashuvi va daromad yondashuvining ustunliklari hamda mavjud cheklovlari tahliliy o'rganiladi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida nomoddiy aktivlarning korxonada umumiy qiymatiga ta'siri va baholash amaliyotida kuzatiladigan dolzarb muammolar ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari nomoddiy aktivlarni samarali boshqarish, ular bo'yicha investitsion qarorlar qabul qilish jarayonini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Nomoddiy aktivlar, aktivlarni baholash, brend qiymati, patentlar, intellektual mulk, raqamli iqtisodiyot, dasturiy ta'minot, bozor yondashuvi, xarajatlar yondashuvi, daromad yondashuvi.*

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida korxonada qiymatini shakllantiruvchi asosiy resurslar tobora nomoddiy aktivlar tomon og'ishmoqda. Raqamli texnologiyalar, intellektual mulk, brend obro'si va dasturiy mahsulotlar korxonaning bozor qadriyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi strategik omillarga aylangan. Aynan shu jarayon nomoddiy aktivlarni aniq baholash zaruratini kuchaytirmoqda, chunki ularning bozor narxi ko'plab hollarda moddiy aktivlar qiymatidan ham ustun turadi. Biroq, nomoddiy aktivlarning jismoniy shaklga ega emasligi, ularning huquqiy himoya darajasi, bozor ma'lumotlarining cheklanganligi baholash jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli, ilmiy adabiyotlarda qator baholash yondashuvlari — xarajat, bozor va daromad usullari shakllangan bo'lib, ularning har biri ma'lum sharoitda turlicha natija berishi mumkin. Ushbu maqolada nomoddiy aktivlarni baholashning mazkur yondashuvlari iqtisodiy mohiyat, amaliy qo'llanish va samaradorlik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — nomoddiy aktivlarni baholash jarayonining nazariy asoslarini yoritish va uni amaliy jihatdan takomillashtirish imkoniyatlarini ko'rsatib berishdan iborat.

Nomoddiy aktivlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Huquqiy nomoddiy aktivlar: patentlar, litsenziyalar, mualliflik huquqlari.
- Marketingga oid aktivlar: tovar belgilari, brendlar, logotiplar.
- Dasturiy va texnologik aktivlar: kompyuter dasturlari, nou-xau.
- Tashkiliy aktivlar: tashkil etish xarajatlari, franchayzing.

Buxgalteriya hisobining schyotlar rejasida korxonaga mulkiy huquq asosida tegishli bo'lgan nomoddiy aktivlarning miqdori va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun 0400-«Nomoddiy aktivlarni hisobga oladigan schetlar» (0410-0490) schyotlar mo'ljallangan. Bu schyotlar balansga nisbatan aktiv bo'lib, ularning debet tomonida mavjud nomoddiy aktivlarning qoldig'i, kirimi va kreditida xo'jalikdan chiqishi aks ettiriladi. Nomoddiy aktivlarni audit jarayonidan o'tkazishda ular kirimini to'g'ri rasmiylashtirilgani, kirimi bo'yicha qilingan xarajatlarni ular boshlang'ich qiymatlarida to'g'ri aks ettirilgani, ular amortizatsiyasi va qadrsizlanishini to'g'ri hisoblanganligi hamda nomoddiy aktivlarni tugatish va ular chiqimini haqqoniy ko'rsatilganligiga xolis baho berishdan iborat. Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini to'g'ri hisoblanishi auditning muhim masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki barcha nomoddiy aktivlarga ham amortizatsiya hisoblanmasligi mumkin. Chunonchi, xizmat muddati aniq bo'lmagan nomoddiy aktivlar hamda gudvelga amortizatsiya hisoblanmaydi balkim ular faqat qadrsizlanishga tekshiriladi xolos. Agarda korxonada buxgalteri barcha nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblasa korxonada xarajati oshadi va sof foyda ham shunga mos kamayadi hamda korxonada sof aktivlari ham shu summaga kamayadi. Bu esa o'z navbatida korxonada asosiy ko'rsatkichlariga salbiy tasirini ko'rsatadi. Mamlakatimizdagi amalda bo'lgan me'yoriy xujjatlarga asosan barcha nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblanadi. Biz korxonalarga 38-sonli "Nomoddiy aktivlar" nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standartiga asosan faqatgina xizmat muddati aniq bo'lgan nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashni qolgan nomoddiy aktivlar esa faqat qadrsizlanishga tekshirilishini taklif qilamiz.

Nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish korxonaning moliyaviy holatini aniq ifodalash uchun zarur. Ular buxgalteriya balansida "Nomoddiy aktivlar" bandida kiritiladi. Ularni hisobga olishda dastlabki baholash, amortizatsiya va qoldiq qiymat aniqlash kabi bosqichlar bajariladi. Dastlabki qiymat aktivni yaratish yoki sotib olish uchun qilingan xarajatlar yig'indisi asosida belgilanadi. Amortizatsiya esa aktiv qiymatini foydalanish muddati davomida bosqichma-bosqich ishlab chiqarish xarajatlariga o'tkazish jarayonidir. Cheklanmagan muddatli aktivlarga amortizatsiya hisoblanmaydi, ular zarurat tug'ilganda qayta baholanadi.

Bugungi kunda nomoddiy aktivlar korxonalarining raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim omilga aylangan. Rivojlangan mamlakatlarda korxonada qiymatining katta qismi aynan intellektual mulk, brend qiymati va innovatsion ishlanmalar orqali shakllanadi. Masalan, "Apple", "Microsoft" yoki "Google" kompaniyalari qiymatining katta qismini ularning nomoddiy aktivlari tashkil etadi. O'zbekiston sharoitida ham raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlar va franchayzing tarmoqlari sohasida nomoddiy aktivlarning ahamiyati ortib bormoqda.

Nomoddiy aktivlarni baholash jarayonida 3 ta asosiy yondashuvdan foydalaniladi: xarajatlar, daromad va bozor yondashuvi.

Xarajatlar yondashuvida aktivni yaratish yoki qayta tiklash uchun ketgan xarajatlar asos qilib olinadi.

Daromad yondashuvi aktivdan foydalanish natijasida olinadigan foyda miqdorini hisobga oladi.

Bozor yondashuvi esa o'xshash aktivlarning bozor bahosiga asoslanadi. Amaliyotda daromad yondashuvi eng samarali usul hisoblanadi, chunki u nomoddiy aktivning korxonaga foydasiga qo'shgan haqiqiy hissasini ko'rsatadi.

Nomoddiy aktivlarning iqtisodiy ahamiyati shundaki, ular innovatsion rivojlanishni ta'minlaydi, korxonaning obro'-e'tiborini oshiradi, raqobat ustunligini mustahkamlaydi va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali korxonaga yangi bozorlarni egallaydi, mahsulot sifati va xizmat ko'rsatish darajasini oshiradi. Shuningdek, intellektual mulk orqali korxonaga qo'shimcha daromad manbalarini shakllantiradi, bu esa umumiy iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Nomoddiy aktivlar korxonaning intellektual, innovatsion va tashkiliy salohiyatini ifodalaydi. Ular moddiy shaklga ega bo'lmasa-da, korxonaga qiymatining muhim qismini tashkil etadi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu boisdan, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt nomoddiy aktivlarni aniqlash, baholash va hisobini yuritish mexanizmlarini takomillashtirishi lozim. Intellektual mulkni himoya qilish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va nomoddiy resurslardan samarali foydalanish korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi hamda mamlakatning innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtiradi.

Baholash jarayonida korxonaning bozor ulushi, brend imiji, mijozlar sodiqligi, marketing strategiyasi, intellektual mulk portfelining hajmi va diversifikatsiyasi ham e'tiborga olinadi. Masalan, mashhur brendlar yoki keng qo'llanilayotgan dasturiy mahsulotlar bozorda yuqori qiymatga ega bo'ladi, chunki ular barqaror daromad manbai va uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlaydi.

Zamonaviy baholash amaliyotida xalqaro standartlarga tayaniladi. Xususan, Xalqaro baholash standartlari (IVS), ISO 10668:2010 "Brendlarni baholash", shuningdek WIPO (Butunjahon intellektual mulk tashkiloti) tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar asosida baholash amalga oshiriladi. Ushbu standartlar nomoddiy aktivlarni iqtisodiy, huquqiy va marketing jihatlaridan kompleks tahlil qilishni nazarda tutadi. O'zbekistonda ham nomoddiy aktivlarning bozor qiymatini aniqlashga doir me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilgan. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, "Intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya standartlari asosida nomoddiy aktivlar korxonaga balansida e'tirof etiladi va ularning qiymati aniqlanadi. Shu bilan birga, baholovchi tashkilotlar tomonidan maxsus ekspertiza asosida ularning bozor qiymati aniqlanadi.

Nomoddiy aktivlarning bozor qiymatini to'g'ri aniqlash korxonaga uchun bir qator strategik afzalliklar yaratadi. Avvalo, bu aktivlarni garov sifatida qo'llash, ularni investorlarga taqdim etish, litsenziyalash yoki franchayzing orqali daromad olish imkoniyatini beradi. Shuningdek, bu korxonaga kapitalini to'liq baholash, investorlar ishonchini oshirish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Nomoddiy aktivlarning korxonada qiymatidagi ulushi ortib borayotgan bugungi sharoitda ularni to'g'ri baholash iqtisodiy qarorlar samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan xarajat, bozor va daromad yondashuvlari nomoddiy aktivlarning turli jihatlarini qamrab olgani sababli, amaliyotda ushbu usullarni kompleks qo'llash eng to'g'ri natija berishi aniqlanadi. Nomoddiy aktivlarning jismoniy shaklga ega emasligi va bozor ma'lumotlarining cheklanganligi baholash jarayonini murakkablashtirsa-da, to'g'ri tanlangan metodika ularning haqiqiy iqtisodiy qiymatini aniqlashga imkon yaratadi. Shuningdek, brend, patent, dasturiy ta'minot va mijozlar bazasi kabi aktivlarning korxonada raqobatbardoshligiga bevosita ta'siri ularni strategik boshqarishni yanada kuchaytirishni talab qiladi. Umuman olganda, nomoddiy aktivlarni baholashni takomillashtirish korxonalarining investitsion jozibadorligi, innovatsion rivojlanish darajasi va bozor qadriyatining oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MABALAR:

1. Karimov B., Yusupov Q. – “Buxgalteriya hisobi” darsligi. Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
2. Urazov K.B., Vohidov S.B. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik.-T.: Adib,2011:
3. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti 21-son: “Nomoddiy aktivlar hisobi”.
4. Moliya vazirligi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to'g'risidagi qarorlari (so'nggi tahrir).
5. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi.